



**TIJORAT BANKLARINI SOLIQQA TORTISHNING XORIJ TAJRIBASI VA
UNDAN O'ZBEKISTON AMALIYOTIDA FOYDALANISH IMKONIYATLARI**

Mirramazonova Madinabonu Muzaffar qizi

Annotatsiya. *Tezida tijorat banklarini soliqqa tortishning zamonaviy xorijiy tajribasi hamda ushbu amaliyotning O'zbekiston soliq tizimida qo'llanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Banklarning iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik funksiyasi, yuqori darajadagi tizimli ahamiyati va moliyaviy barqarorlikka ta'siri mazkur sohada oddiy korporativ soliqqa tortish bilan bir qatorda maxsus soliq instrumentlaridan foydalanishni taqozo etishi ko'rsatib berilgan.*

Kalit so'zlar: *tijorat banklari, bank foydasi, foyda solig'i, soliq yuki, bank solig'i, bank surcharge.*

KIRISH

Tijorat banklari milliy iqtisodiyotda pul mablag'larini qayta taqsimlash, jamg'armalarni investitsiyalarga yo'naltirish, xo'jalik yurituvchi subyektlarni kreditlash hamda to'lov tizimining uzluksiz faoliyatini ta'minlash orqali strategik ahamiyat kasb etadi. Shu sababli banklarni soliqqa tortish masalasi oddiy fiskal vazifa bilan cheklanmaydi. Soliq stavkasining haddan tashqari yuqori bo'lishi banklarning kapital yig'ish imkoniyatlarini cheklashi, kreditlash hajmini qisqartirishi va moliyaviy vositachilik xarajatlarini oshirishi mumkin. Aksincha, bank sektoriga asossiz imtiyozlar berilishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga nisbatan soliq neytralligini buzadi va davlat budjeti daromadlarini kamaytiradi. Shuning uchun zamonaviy soliq siyosatida banklarning fiskal salohiyati bilan ularning moliyaviy barqarorligi o'rtasida oqilona muvozanatni ta'minlash muhim hisoblanadi.

ASOSIY QISM

O'zbekiston soliq amaliyotida tijorat banklari boshqa ko'plab xo'jalik yurituvchi subyektlarga nisbatan yuqoriroq foyda solig'i stavkasiga ega. Amaldagi tizimda umumiy korporativ foyda solig'i stavkasi 15 foiz bo'lgan sharoitda tijorat banklari uchun 20 foizlik stavka qo'llanadi. Mazkur yondashuv bank sektorining daromadlilik darajasi, moliyaviy operatsiyalar hajmi va iqtisodiyotdagi alohida mavqeini hisobga olishga asoslanadi. Ergasheva tomonidan tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'ining davlat budjetiga ta'siriga bag'ishlangan 2025-yilgi tadqiqotda bank foyda solig'ining budjet daromadlarini diversifikatsiya qilish va davlat moliyaviy barqarorligini mustahkamlashdagi ahamiyati qayd etilgan [2].

Banklardan olinadigan soliqlarning iqtisodiy ta'sirini baholashda bank sektorining real moliyaviy holati muhimdir. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining 2025-yil yakunlari bo'yicha ma'lumotlariga ko'ra, mamlakat bank tizimining yalpi daromadi 201 trln so'mni, sof foydasi esa 15,5 trln so'mni tashkil etgan. Bank aktivlari 925 trln so'mga yetgan, kapital yetarliligi ko'rsatkichi 18,3 foizni tashkil qilgan. Muammoli kreditlar ulushi 3



foizgacha kamaygan va bank tizimi rentabelligida ijobiy o'zgarishlar kuzatilgan [3]. Mazkur raqamlar bank sektorining soliq bazasi kengayib borayotganini ko'rsatsa-da, soliq yukining oshirilishi kapital yetarliligi, kredit narxi va banklarning iqtisodiyotni moliyalashtirish qobiliyatiga qanday ta'sir qilishini ham hisobga olish lozim.

Xorijiy mamlakatlar tajribasi banklarni soliqqa tortishda bir xil model mavjud emasligini ko'rsatadi. Ayrim davlatlarda banklar umumiy korporativ daromad solig'ini to'lasa, boshqa mamlakatlarda ularning foydasi, balans majburiyatlari yoki favqulodda daromadlari uchun maxsus qo'shimcha soliqlar joriy etilgan. Ushbu yondashuvlarning eng rivojlangan namunalaridan biri Buyuk Britaniyada kuzatiladi. Bu mamlakatda tijorat banklari umumiy korporativ soliqdan tashqari "Bank Surcharge" — bank foydasiga qo'shimcha soliq to'laydi. 2023-yil 1-apreldan banklar uchun qo'shimcha soliq stavkasi 3 foiz etib belgilangan va u guruh miqyosida 100 mln funt sterlingdan yuqori tegishli foyda qismiga tatbiq qilinadi [4]. Shu tariqa kichikroq banklar yoki nisbatan past daromadli bank faoliyatiga nisbatan soliq yukining keskin oshib ketishining oldi olinadi. Buyuk Britaniyada asosiy korporativ soliq stavkasi 25 foiz bo'lganligi sababli, yirik banklarning tegishli foydasiga jami marginal soliq yukining 28 foizgacha yetishi mumkin.

Buyuk Britaniya tajribasining O'zbekiston uchun muhim jihati soliq stavkasining faqat bank maqomiga emas, balki foyda miqdoriga bog'langanligidir. O'zbekistonda esa bankning kapitali, rentabelligi yoki bozordagi ulushidan qat'i nazar, umumiy 20 foizlik stavka qo'llanadi. Kelgusida bank sektorida xususiy va xorijiy kapital ulushi oshishi, kichik raqamli banklar hamda yirik universal banklar o'rtasidagi farq kengayishi mumkin. Bunday sharoitda banklarni yagona yuqori stavka bilan soliqqa tortish soliq yukining iqtisodiy ta'siri jihatidan bir xil natija bermaydi. Shu sababli Buyuk Britaniyadagi kabi ma'lum foyda chegarasidan yuqori qism uchun qo'shimcha stavka mexanizmini o'rganish maqsadga muvofiq.

Yevropa Ittifoqining so'nggi tajribasida banklarning "favqulodda foydasi"ni soliqqa tortish masalasi ham alohida o'rin egallamoqda. 2022–2024-yillarda markaziy banklar foiz stavkalarining oshirilishi ayrim mamlakatlarda kredit foizlarining tez o'sishiga, depozit stavkalarining esa sekinroq moslashishiga olib kelgan. Natijada ayrim banklarning sof foiz marjasi va foydasi keskin oshgan. Yevropa Komissiyasining 2025-yilda e'lon qilingan Boltiqbo'yi mamlakatlari bo'yicha tadqiqotida Litva, Latviya va Estoniyaning bank sektoridagi yuqori foydaga nisbatan turli yondashuvlari o'rganilgan [5]. Litvada banklarning favqulodda daromadlariga birdamlik badali joriy etilgan bo'lsa, Latviya ipoteka kreditlari bilan bog'liq maxsus fiskal mexanizmni qo'llagan, Estoniya esa banklar bilan dividendlarni oshirish bo'yicha kelishuv modelidan foydalangan. Tadqiqot natijalari maxsus soliqlar davlat daromadlarini ko'paytirganini, biroq ular doimiy soliq tizimining o'rnini bosmasligi va moliyaviy vositachilikka salbiy ta'sir qilmasligi kerakligini ko'rsatadi [5].

XULOSA VA MUNOZARA

Tijorat banklarini soliqqa tortish bo'yicha xorijiy tajriba bank sektoriga nisbatan fiskal siyosat differensial va iqtisodiy sharoitga moslashuvchan bo'lishi kerakligini ko'rsatadi. Buyuk Britaniyada umumiy korporativ soliq bilan bir qatorda yirik bank foydasiga





qo'shimcha 3 foizlik soliq qo'llanilishi banklarning fiskal salohiyatini hisobga oluvchi mexanizm sifatida namoyon bo'lmoqda [4]. Boltiqbo'yi davlatlarining so'nggi tajribasi esa favqulodda yuqori bank daromadlarini vaqtinchalik soliqqa tortish imkoniyatini ko'rsatgan, biroq bunday instrumentlarni doimiy soliq siyosatiga aylantirish moliyaviy bozorda noaniqlik keltirib chiqarishi mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mamedova G. K. Analysis of the current state of taxation of commercial banks' profits in Uzbekistan // World Bulletin of Social Sciences. — 2024. — Vol. 41. — P. 64–72.
2. Ergasheva L. R. Tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'ining davlat budjetiga ta'siri // Marketing. — 2025. — № 8.
3. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. 2025-yil uchun yillik hisobot. — Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, 2026. — 86 b.
4. HM Revenue & Customs. PAYE and Corporate Tax Receipts from the Banking Sector: 2025. Background Information. — London: HM Revenue & Customs, 2025.
5. Valentinaite M., Ceponyte E., Zustrups I. Taxing Bank Windfall Profits: Lessons from the Baltics // European Economy. Economic Brief. — Brussels: European Commission, Directorate-General for Economic and Financial Affairs, 2025. — No. 086. — 26 p. — DOI: 10.2765/609879.